# Samarqand viloyatida sogliqni saqlash

*2024-yil yakuni boʻyicha.*

*I.* Samarqand viloyatidagi shifoxona muassasalari hamda ulardagi bemor oʻrinlari

*II.* Samarqand viloyatidagi ambulatoriya-poliklinika muassasalari

*III.* Samarqand viloyatidagi faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassisliklar boʻyicha shifokorlar hamda oʻrta tibbiyot xodimlari

*IV.* Aholining kasallanish darajasi hamda shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar

*V.* Sogliqni saqlash boʻyicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

## I. Samarqand viloyatidagi shifoxona muassasalari hamda ulardagi bemor oʻrinlari

**Shifoxona muassasasi** – kechayu kunduz tibbiy yordam koʻrsatuvchi, bemorlarni diagnostika, davolash va reabilitatsiya qilish uchun moljallangan, professional tayyorlangan amaliyotga ega, kamida bitta shifokori mavjud statsionar davolash muassasasi.

Samarqand viloyatida shifoxona muassasalari soni

*(tegishli yil yakuni boʻyicha, birlik)*




2024-yil yakuni boʻyicha Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan shifoxona muassasalarining umumiy soni **193 taga** yetdi va 2023-yilga nisbatan **68 taga** koʻpayib, **35,3 % ga** oʻsish kuzatildi.

## Shifoxona muassasalaridagi bemor o'rinlari soni

*(tegishli yil yakuni bo'yicha, ming birlik)*




## Shifoxona muassasalari hamda ulardagi bemor o'rinlari sonini hududlar kesimida taqsimlanishi

*(2024-yil yakuni bo'yicha, birlik)*

| | Shifoxona muassasalari soni | | Davolangan bemorlar soni, kishi | Bemor o'rinlari soni *(birlik)* | |
|---|---|---|---|---|---|
| | jami [1] | jamiga nisbatan % dagi ulushi | jami | jami [1] | jamiga nisbatan % dagi ulushi |
| **Samarqand viloyati** | **193** | **100,0** | **792 536** | **16 332** | **100,0** |
| *shaxarlar:* | | | | | |
| Samarqand sh. | 85 | 44,1 | 331 592 | 6 550 | 40,1 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 5 | 2,6 | 25 296 | 519 | 3,2 |
| *tumanlar:* | | | | | |
| Oqdaryo | 10 | 5,2 | 21 090 | 435 | 2,7 |
| Bulung'ur | 7 | 3,6 | 24 330 | 441 | 2,7 |
| Jomboy | 10 | 5,2 | 27 516 | 533 | 3,3 |
| Ishtixon | 11 | 5,6 | 31 297 | 749 | 4,6 |
| Kattaqo'rg'on | 4 | 2,1 | 21 924 | 464 | 2,8 |
| Qo'shrobod | 8 | 4,2 | 17 599 | 443 | 2,7 |
| Narpay | 1 | 0,5 | 22 006 | 375 | 2,3 |
| Nurobod | 2 | 1,1 | 18 564 | 287 | 1,8 |
| Payariq | 4 | 2,0 | 33 074 | 545 | 3,3 |
| Pastdarg'om | 9 | 4,6 | 41 158 | 802 | 4,9 |
| Paxtachi | 2 | 1,1 | 20 149 | 298 | 1,8 |

[1] *Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlar qo'shilgan holda.*

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Samarqand | 17 | 8,9 | 32 927 | 1 430 | 8,8 |
| Toyloq | 9 | 4,6 | 23 477 | 581 | 3,6 |
| Urgut | 9 | 4,6 | 100 537 | 1 880 | 11,5 |

2024-yil yakuni boʻyicha eng koʻp shifoxona muassasalari Samarqand sh. (**85 ta**), Samarqand (**17 ta**) hamda Ishtihon tumanlarida (**11 ta**) joylashgan bolsa, boshqa hududlarga nisbatan eng past koʻrsatkichlar Narpay (**1 ta**), Nurobod (**2 ta**) va Paxtachi (**2 ta**) tumanlarida qayd etilgan.

Shifoxona muassasalaridagi eng koʻp bemor oʻrinlari Samarqand shahri (**6 550 ta**), Urgut (**1 880 ta**) va Samarqand (**1 430 ta**) tumanlarida qayd etilgan bolib, boshqa hududlarga nisbatan eng past koʻrsatkichlar Nurobod (**287 ta**), Narpay ( **375 ta**) va Oqdaryo (**435 ta**) tumanlarida kuzatilgan.

**Mavzuga doir koʻrsatkichlar:**
*Shifoxona muassasalari soni*
*Shifoxona muassasalari sonini hududlar kesimida taqsimlanishi*
*Shifoxona muassasalaridagi bemor oʻrinlari soni*
*10 000 aholiga toʻgʻri keladigan bemor oʻrinlari soni*

## II. Samarqand viloyatidagi ambulatoriya-poliklinika muassasalari

**Ambulatoriya-poliklinika muassasalari** – aholining ushbu muassasalarga qatnashi yoki shifokorlarni uylarga tashrif buyurishi orqali aholiga davolash profilaktika yordamini koʻrsatuvchi muassasalardir (poliklinikalar, dispanserlar, shifoxonalarning poliklinika bolimlari, ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari, tibbiy sanitariya qismlar, ambulatoriyalar, qishloq (shahar) vrachlik punktlari, mustaqil vrachlik tibbiyot punktlari, ayollar maslahat xonalari va boshqalar).

Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni
*(tegishli yil yakuni boʻyicha, birlik)*




2024-yil yakunida Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni **724 taga** yetdi va 2023-yilga nisbatan **84 taga** kamayib, **10,4 %ni** tashkil etdi.

## Ambulatoriya-poliklinika muassasalari sonini hududlar kesimida taqsimlanishi

*(2024-yil yakuni boʻyicha, birlik)*

| | Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni | |
|---|---|---|
| | jami [1] | jamiga nisbatan % dagi ulushi |
| **Samarqand viloyati** | **724** | **100,0** |
| *shaxarlar:* | | |
| Samarqand sh. | 217 | 30,0 |
| Kattaqoʻrgʻon sh. | 25 | 3,5 |
| *tumanlar:* | | |
| Oqdaryo | 16 | 2,2 |
| Bulungʻur | 34 | 4,7 |
| Jomboy | 30 | 4,1 |
| Ishtixon | 42 | 5,8 |
| Kattaqoʻrgʻon | 27 | 3,7 |
| Qoʻshrobod | 20 | 2,8 |
| Narpay | 22 | 3,0 |
| Nurobod | 34 | 4,7 |
| Payariq | 52 | 7,2 |
| Pastdargʻom | 45 | 6,2 |
| Paxtachi | 22 | 3,0 |
| Samarqand | 45 | 6,2 |
| Toyloq | 50 | 6,9 |
| Urgut | 43 | 5,9 |

2024-yil yakuni boʻyicha hududlar kesimida eng koʻp ambulatoriya-poliklinika muassasalari Samarqand shahrida (**217 ta**), Payariq (**52 ta**) va Tayloq (**50 ta**) tumanlarida qayd etilgan bolib, eng past koʻrsatkichlar Oqdaryo (**16 ta**), Qoʻshrobod (**20 ta**) va Narpay, Paxtachi (**22 ta**) tumanlarida kuzatilgan.

**Mavzuga doir koʻrsatkichlar:**

[1] *Hududlar boʻyicha taqsimlanmagan ma'lumotlar qoʻshilgan holda.*

[Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni]
[Ambulatoriya-poliklinika muassasalari sonini hududlar kesimida taqsimlanishi]

## III. Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassisliklar boʻyicha shifokorlar hamda oʻrta tibbiyot xodimlari

**Shifokorlarning umumiy soni**ga yil oxirida tibbiyot, sanitariya tashkilotlari, ijtimoiy ta'minot muassasalari, tibbiyot ilmiy-tadqiqot institutlari, shuningdek, kadrlar tayyorlash muassasalarida va boshqalarda ishlaydigan oliy tibbiy maʼlumotga ega bolgan barcha shifokorlar kiradi.

**Oʻrta tibbiyot xodimlarining umumiy soni**ga tibbiyot va sanitariya tashkilotlari, ijtimoiy ta'minot muassasalari, maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar, bolalar uylari va boshqalarda ishlaydigan oʻrta tibbiy ma'lumotga ega bolgan barcha shaxslar (tish shifokorlaridan tashqari) kiradi.

Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan
barcha mutaxassisliklar boʻyicha shifokorlar soni
*(tegishli yil yakuni boʻyicha, ming kishi)*




2024-yil yakuniga koʻra, Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassisliklar boʻyicha shifokorlar soni **11,5 ming kishini** tashkil etdi va 2023-yilga nisbatan **0,5 ming kishiga**, ya'ni **4,2 % ga** kamaydi.

Samarqand viloyatida oʻrta tibbiyot xodimlari soni
*(tegishli yil yakuni boʻyicha, ming kishi)*



2024-yil yakunida Samarqand viloyatida o'rta tibbiyot xodimlari soni **32,9 ming kishini** tashkil etdi va 2023- yilga nisbatan **0,7 ming kishiga**, ya'ni **2,1 % ga** kamaydi.

### Barcha mutaxassisliklar bo'yicha vrachlar xamda o'rta tibbiyot xodimlari sonini hududlar kesimida taqsimlanishi [1)]

*(2024- yil yakuni bo'yicha, ming kishi)*

| | Shifokorlar soni, jami | jamiga nisbatan % dagi ulushi | ulardan: | | O'rta tibbiyot xodimlari soni |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | erkaklar | ayollar | |
| **Samarqand viloyati** | **11,5** | **100,0** | **6,9** | **4,6** | **32,9** |
| *shaxarlar:* | | | | | |
| Samarqand sh. | 6,7 | 58,4 | 3,9 | 2,8 | 12,0 |
| Kattaqo'rg'on sh. | 0,3 | 2,4 | 0,2 | 0,1 | 1,0 |
| *tumanlar:* | | | | | |
| Oqdaryo | 0,2 | 2,1 | 0,1 | 0,1 | 0,9 |
| Bulung'ur | 0,3 | 2,3 | 0,2 | 0,1 | 0,7 |
| Jomboy | 0,3 | 2,8 | 0,2 | 0,1 | 1,1 |
| Ishtixon | 0,3 | 2,8 | 0,2 | 0,1 | 1,3 |
| Kattaqo'rg'on | 0,3 | 2,5 | 0,2 | 0,1 | 1,3 |
| Qo'shrobod | 0,1 | 1,2 | 0,2 | 0,0 | 1,3 |
| Narpay | 0,2 | 1,9 | 0,1 | 0,1 | 1,3 |
| Nurobod | 0,2 | 1,6 | 0,1 | 0,1 | 1,1 |
| Payariq | 0,4 | 3,6 | 0,3 | 0,1 | 2,3 |
| Pastdarg'om | 0,4 | 3,6 | 0,2 | 0,2 | 1,5 |
| Paxtachi | 0,2 | 2,0 | 0,1 | 0,1 | 1,1 |
| Samarqand | 0,6 | 4,8 | 0,3 | 0,3 | 2,2 |
| Toyloq | 0,3 | 2,5 | 0,2 | 0,1 | 1,0 |
| Urgut | 0,6 | 5,5 | 0,4 | 0,2 | 2,8 |

2024-yil yakuni bo'yicha Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlarning eng ko'p soni Samarqand shahri (**6,7 ming kishi**), Samarqand (**0,6 ming kishi**) va Urgut (**0,6 ming kishi**) tumanlariga to'g'ri kelgan. Eng past ko'rsatkichlar esa Qo'shrobot (**0,1 ming kishi**) va Oqdaryo Narpay, Nurobod, Paxtachi tumanlarida (**0,2 ming kishi**) kuzatilgan.

Barcha mutaxassisliklar bo'yicha shifokorlarning gender taqsimoti shuni ko'rsatadiki, Samarqand shahri (**58,4 %**) va Urgut tumanida (**5,5 %**) kuzatilgan.

[1)] *Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlar qo'shilgan holda.*

## Ixtisosliklar va ayrim mutaxassisliklar boʻyicha vrachlar bilan ta'minlanganlik

*(tegishli yil yakuni boʻyicha, 10 000 aholiga nisbatan vrachlar soni)*

| | *ming kishi* |
|---|---|
| **Jami vrachlar,** | **11,5** |
| *ulardan:* | |
| terapevtik ixtisosligi boʻyicha | 4,5 |
| jarrohlik ixtisosligi boʻyicha | 1,5 |
| akusher-ginekologlar *(10 000 ayolga nisbatan)* | 0,9 |
| pediatrlar *(0-14 yoshdagi 10 000 bolaga nisbatan)* | 0,4 |
| pediatrlar *(0-17 yoshdagi 10 000 bolaga nisbatan)* | 0,4 |
| oftalmologlar | 0,1 |
| otolaringologlar | 0,2 |
| ftiziatrlar | 0,09 |
| nevropatologlar | 0,5 |
| psixiatrlar | 0,1 |
| narkologlar | 0,05 |
| dermato-venerologlar | 0,1 |
| stomatologlar | 1,4 |
| sanitariya-epidemiologiya guruh vrachlari | 0,4 |
| rentgenologlar va radiologlar | 0,2 |
| onkologlar | 0,1 |
| boshqalar | 0,6 |

**Mavzuga doir koʻrsatkichlar:**
*Barcha mutaxassisliklar boʻyicha vrachlar soni*
*Vrachlar bilan ta'minlanganlik (10 000 aholiga nisbatan vrachlar soni)*
*Bitta shifokorga toʻgʻri keladigan aholi soni*
*Barcha mutaxassisliklar boʻyicha ayol-vrachlar soni*
*Barcha mutaxassisliklar boʻyicha vrachlar sonidan ayollar ulushi*
*Barcha mutaxassisliklar boʻyicha vrachlar sonidan erkaklar ulushi*

## IV. Aholining kasallanish darajasi hamda shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni

**Kasallanish darajasi** – bu koʻrsatkich ma'lum bir davr mobaynida har 100 000 aholiga toʻgʻri keladigan birinchi marotaba roʻyxatga olingan kasallik holatlari sonini aks ettiradi. U yangi kasalliklarni paydo bolishi dinamikasini tahlil qilish, profilaktika choralari samaradorligini baholash va tibbiy resurslarni rejalashtirish uchun ishlatiladi.

2024-yil yakunida Samarqand viloyatida aholining kasallanish darajasi har 100 000 aholiga nisbatan **1 874,9 ming ta** birinchi marotaba tashxisi aniqlangan holatlarni tashkil etdi va 2023-yilga nisbatan **1,1 % ga** koʻpaydi.

### Kasalliklarning asosiy guruhlari boʻyicha aholining kasallanish darajasi

| | *ming kishi* |
|---|---|
| **Jami** | **1 874,9** |
| Ba'zi yuqumli va parazitar kasalliklar | 59,2 |
| Yangi paydo boʻlgan oʻsmalar | 6,6 |
| Endokrin tizimi kasalliklari, ovqatlanish, modda almashinuvi buzilishlari | 66,2 |
| Qon va qon yaratish a'zolari kasalliklari va immun mexanizmiga ta'sir etuvchi ayrim buzilishlar | 283,4 |
| Ruhiyat va xulq-atvor buzilishi | 4,0 |
| Asab tizimi kasalliklari | 100,2 |
| Koʻz va uning qoʻshimcha apparat kasalliklari | 78,1 |
| Quloq va soʻrgʻichsimon oʻsimta kasalliklari | 53,0 |
| Qon aylanish tizimi kasalliklari | 90,9 |
| Nafas olish a'zolari kasalliklari | 380,9 |
| Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari | 367,9 |
| Siydik-tanosil tizimi kasalliklari | 129,8 |
| Homiladorlik, tugʻruq va tugʻruqdan keyingi davr asoratlari | 77,3 |
| Teri va teri ostki toʻqimasi kasalliklari | 44,4 |
| Suyak-mushak tizimi va biriktiruvchi toʻqima kasalliklari | 45,5 |
| Tugʻma anomaliyalar, deformatsiya va xromosom buzilishlar | 1,4 |
| Perinatal davrida roʻy bergan ayrim holatlar | 6,9 |
| Jarohatlanish, zaharlanishlar va ayrim tashqi sabablar bilan bogʻliq asoratlar | 79,2 |

*(2024- yil yakuni boʻyicha, 100 000 aholiga nisbatan birinchi marotaba tashxisi aniqlangan holatlar soni)*

*1) 15-49 yoshdagi ayollarga nisbatan.*
*2) Perinatal yoshdagi bolalarga nisbatan.*

## V. Sogliqni saqlash boʻyicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Sogliqni saqlash statistikasi** – sogliqni saqlash tizimi rivojlanishining miqdoriy xususiyatlarini (sogliqni saqlash muassasalari tarmogʻi, ularning holati va taʼminlanganligi, tibbiy xodimlar), aholining umumiy salomatlik holati va uning alohida kontingentlarining miqdoriy xususiyatlari, tarkibi, kasallanish chastotasi va tarqalishini oʻrganuvchi statistika tarmogʻi hisoblanadi.

Sogliqni saqlash statistikasining asosiy vazifasi foydalanuvchilarga sogliqni saqlashning holati va rivojlanishini tavsiflovchi ishonchli rasmiy statistika maʼlumotlarini oʻz vaqtida taqdim etishdan iborat.

Sogliqni saqlash statistikasi sogliqni saqlash tarmoqlari, sogliqni saqlash tashkilotlari xodimlari, bemorlarning kasalxonaga yotqizilishi, tibbiy yordam koʻrsatilishi, sogliqni saqlash resurslari, aholining kasallanish, nogironligini qamrab oladi, hamda oʻzaro bogliq bolgan statistika kuzatuvlari va idoraviy maʼlumotlar tizimi bilan ifodalanadi, ularning har biri oʻziga xos mavzuga va statistika kuzatuv birliklarini shakllantirish xususiyatlariga ega.

Samarqand viloyatida sogliqni saqlash boʻyicha statistik maʼlumotlar har yili shakllantiriladi. Ushbu maʼlumotlar respublika va hududlar kesimida taqdim etilib, hisobot yili yakuni boʻyicha keltiriladi.

Jamlangan maʼlumotlar sogliqni saqlash tizimi rivojlanishini monitoring qilish, rejalashtirish, asosli qarorlar qabul qilish va siyosatni ishlab chiqish, shuningdek, Baraqaror rivojlanish maqsadlari va boshqa xalqaro majburiyatlar doirasida xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

**Foydali havolalar:**
*Sogʻliqni saqlash statistikasi boʻyicha uslubiy nizom*
*Xalqaro kasalliklar tasnifining 10-tahriri (MKB-10)*

**Tayyorlash uchun mas'ul:**
*Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi*

**Manzil:** *Samarkand shahar U. Tursunov ko'chasi 82 uy*
**El. manzil:** *info@samstat.uz*
**Tel.:** *66-235-33-16*